

“QUTADG‘U BILIG”DA GO‘ZALLIK FALSAFASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15639310>

Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna

Alfraganus universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti
ijtimoiy fanlar kafedrası professor v.b, O‘zbekiston

shaxnozaxon058@gmail.com

ORCID: 0009-0002-8931-1341

Annotatsiya.

Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida go‘zallik tushunchasining falsafiy va estetik talqini tahlil etiladi. Go‘zallikning jismoniy, axloqiy va ma’naviy jihatları yoritilib, uning Sharq va G‘arb falsafasidagi tushunchalar bilan o‘zaro bog‘liqligi o‘rganiladi. Asarda go‘zallik axloqiy komillik va ezgulik bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Shuningdek, mutafakkirlarning go‘zallik haqidagi qarashları qiyosiy tahlil qilinib, uning bugungi axloqiy me’yorlarga ta’siri baholanadi.

Kalit so‘zlar: Go‘zallik, inson go‘zalligi, axloqiy go‘zallik, jismoniy go‘zallik, axloqiy komillik, ezgulik.

Аннотация

В данной статье анализируется философская и эстетическая интерпретация понятия красоты в произведении Юсуфа Хас Хаджиба «Кутадгу билиг». Рассматриваются физические, нравственные и духовные аспекты красоты, а также их взаимосвязь с восточными и западными философскими концепциями. В произведении подчеркивается, что красота тесно связана с нравственным совершенством и добродетелью. Кроме того, проведен сравнительный анализ взглядов мыслителей на красоту и оценено их влияние на современные моральные нормы.

Ключевые слова: Красота, человеческая красота, нравственная красота, физическая красота, нравственное совершенство, добродетель.

Abstract

This article analyzes the philosophical and aesthetic interpretation of the concept of beauty in Yusuf Khass Hajib’s work “Qutadghu Bilig”. The study explores the physical, moral, and spiritual aspects of beauty and examines their connection with Eastern and Western philosophical concepts. The work emphasizes that beauty is closely linked to moral perfection and virtue. Furthermore, a comparative analysis of thinkers’ views on beauty is conducted, assessing their impact on contemporary ethical norms.

Keywords: Beauty, human beauty, moral beauty, physical beauty, moral perfection, virtue.

Kirish.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u Bilig” asari ajdodlarimizning hayotiy falsafasini mujassam etgan nodir asarlardan biri bo‘lib, unda borliq va insoniylik mohiyati go‘zallik prizmasidan o‘tib talqin qilinadi. Asardagi jozibadorlik, ko‘pma‘nollik va ramziy ifodalar uning estetik va axloqiy mazmunini yanada chuqurlashtiradi. An‘anaviy qarashlarga ko‘ra, go‘zallik tushunchasi ko‘pincha tashqi go‘zallik bilan bog‘liq holda tushunilgan. Biroq, “Qutadg‘u Bilig”da go‘zallik nafaqat jismoniy, balki axloqiy va ma‘naviy jihatlar bilan ham murakkab falsafiy mazmunga ega ekani yaqqol namoyon bo‘ladi.

Shu bois ushbu maqolada “Qutadg‘u Bilig”da aks etgan go‘zallik konsepsiyasini zamonaviy falsafiy yondashuvlar asosida tahlil qilish muhimdir. Asarda tasvirlangan estetik obrazlar: yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va tubanlik kabi qarama-qarshi fazilatlar bugungi axloqiy va estetik muammolar bilan bog‘liq holda tadqiq qilinadi. Bu asardagi qarashlar nafaqat o‘z davrida, balki zamonaviy axloqiy muammolarga javob izlash jarayonida ham dolzarb bo‘lib, ajdodlar tajribasining kelajak avlod tarbiyasiga ta‘sirini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodlari (Methods). Ushbu maqolada “Qutadg‘u Bilig” asarida go‘zallik tushunchasining turli jihatlarini adabiy-falsafiy tahlil asosida o‘rganiladi. Asarda ilgari surilgan go‘zallik konsepsiyasining mantiqiy va estetik asoslari tahlil qilinib, ularning ma‘naviy va axloqiy talqini o‘rganiladi. Bundan tashqari, tarixiy-qiyosiy yondashuv yordamida “Qutadg‘u Bilig”dagi go‘zallik tushunchasi Sharq va G‘arb falsafasidagi go‘zallik qarashlari bilan solishtiriladi. Bu yondashuv asardagi estetik me‘yorlarning qanchalik universal yoki o‘ziga xos ekanligini aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, estetik tahlil usuli asosida asarda tasvirlangan poetik obrazlar orqali go‘zallik tushunchasining turli jihatlarini ochib beriladi. Go‘zallikka oid asosiy tushunchalar ajratib olinib, ularning axloqiy va ma‘naviy kontekstdagi o‘rni kontent-tahlil orqali ko‘rib chiqiladi.

Natijalar (Results)

O‘z davrining barcha olim va ulamolari go‘zallik tushunchasiga murojaat qilib, uni o‘z nuqtayi nazaridan ta‘riflab kelgan. Yusuf Xos Hojib (XI asr) qarashlarida go‘zallik dastlab ikki jihatga bo‘lingan: fazilat va nuqsonga. U “bediz” (ya‘ni, go‘zal) fazilatlar qatoriga quyidagilarni kiritadi: sevinch, quvonch va shodlik, yetuklik, ko‘ngil yumshoqligi, til va so‘z shirinligi, yo‘lning zarifligi, ravshanlik, kamtarlik, to‘g‘rilik va adolat, ezgulik, rostgo‘ylik va boshqalar. Nuqsonlar esa: pastkashlik, tubanlik, yomonlik, nokaslik, o‘jarlik, qaysarlik, hasadgo‘ylik, xiyalakorlik va isrofgarchilik kabi insoniy kamchiliklar sifatida ko‘rsatilgan.

Yusuf Xos Hojib nazdida, “Kishi noyob emas, noyob – kishilik”, ya‘ni, inson go‘zalligi uning husnidan emas, balki ma‘naviy fazilatlaridan kelib chiqadi. U davlat rahbarlarining ezgu bo‘lishi va bu fazilatlarini namoyon etishini muhim shart sifatida ko‘rsatadi. Unga ko‘ra, “Ezgulik qimmatbaho gavhar, asl ipak va toza

shoyi misoli – u doimo baland qadrlanadi, doimiy e'zozda bo'ladi. Yomonlik esa qadrsiz narsaday gap, u doimo oyoq ostida qolib ketaveradi.” [1.30-b.]

Jumladan,

“Ezgu ezgulikdan chekmagay fig'on,

Yomon o'z fe'lidan bo'lar pushaymon.

Yomonlik qilganning ulusi – o'kinch,

Yomonga yaxshi bo'l, mayli har qachon”, - deydi.[1.36-b]

Bu qarashlar Alisher Navoiy (1441–1501)ning fikrlari bilan hamohangdir. U go'zallikni odamiylik va axloqiy barkamollik bilan bog'lab, “Go'zal yuzdan ko'ra, go'zal xulq muhim” deya ta'kidlaydi. Navoiy insonning ichki go'zalligini yuksak qadrlab, “so'z”ni qimmatbaho gavhar bilan qiyoslaydi va uni inson kamolotining mezoni sifatida talqin etadi. Uning inson go'zalligi haqidagi qarashlari Yusuf Xos Hojibning fikrlari bilan mushtarak bo'lib, har ikkisi ham go'zallikni nafaqat tashqi go'zallik, balki axloqiy va ma'naviy yuksaklik bilan bog'liq holda tushuntiradi. Navoiyning inson go'zalligi haqidagi konsepsiyasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolgan bo'lib, ma'naviy tarbiya va komillik yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. [2.318-322 c.]

Falsafa tarixida Sharq va G'arb mutafakkirlari go'zallik haqida turlicha qarashlarni ilgari surgan. Sharq mutafakkirlari go'zallikni axloq, ma'naviyat va ilohiy jihatlar bilan bog'lagan bo'lsa, G'arb mutafakkirlari uni subyektiv tajriba, san'at va uyg'unlik orqali talqin qilgan. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u Bilig” asarida go'zallikni jismoniy go'zallikdan ko'ra axloqiy va ma'naviy mukammallik bilan bog'liq deb tushuntiradi. Uning fikricha, haqiqiy go'zallik “adolat”, “bilim” va “komillik” bilan uyg'unlashgan fazilatdir. Masalan, Forobiy (872–950) go'zallikni aql va ezgulik bilan bog'lab, san'at va musiqa orqali inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ibn Sino (980–1037) go'zallikni tartib va uyg'unlik deb ta'riflab, inson faqat jismoniy go'zallik, husn, chiroy bilan emas, balki aqliy va axloqiy mukammallik bilan ham go'zal bo'lishi mumkinligini aytadi.

Jaloliddin Rumiy (1207–1273) go'zallikni Allohning tajallisi sifatida talqin qilib, ruhiy va ma'naviy go'zallik jismoniy go'zallikdan ustunligini ta'kidlaydi. G'arb mutafakkirlaridan, Platon (mil. avv. 427–347) go'zallikni mutlaq, o'zgarishsiz va abadiy haqiqat deb hisoblaydi. Aristotel (mil. avv. 384–322) go'zallikni uyg'unlik va mutanosiblik natijasi deb biladi. Plotin (mil. 204–270) go'zallikni ma'naviy va ilohiy hodisa deb tushuntiradi, jismoniy go'zallik esa faqat ichki mukammallikning aksidir. Immanuel Kant (1724–1804) go'zallikni subyektiv tushuncha deb bilib, insonning didi va his-tuyg'ulari bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Fridrix Nitsshe (1844–1900) go'zallikni kuch va irodani aks ettiruvchi vosita deb hisoblaydi. Martin Xaydegger (1889–1976) go'zallikni haqiqatning ochilishi deb tushuntiradi.

Sharq falsafasida go'zallik ko'proq axloqiy poklik va ruhiy yuksaklik bilan bog'liq bo'lsa, G'arb falsafasida u estetik idrok va san'at bilan bog'liq tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. [3.171-172] Yusuf Xos Hojibning go'zallik haqidagi qarashlari ayniqsa axloqiy go'zallik konsepsiyasi bilan uyg'un keladi. “Qutadg'u

Bilig”dagi go‘zallik tushunchasi insoniy fazilatlarning yuksakligi, axloqiy mukammallik va adolat bilan bog‘lanib, bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Sharq va G‘arb mutafakkirlarining go‘zallik haqidagi qarashlarini qiyosiy tahlil qilish orqali ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda tarixiy taraqqiyotini tushunish mumkin.

Asarda tashqi go‘zallik masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan. Insonning jismoniy husni muhim omillardan biri sifatida ta’riflanadi, chunki tashqi ko‘rinish kishining shaxsiyati va fazilatlari bilan uyg‘unlashgan holda uning maqomini belgilaydi. Biroq, jismoniy go‘zallikning o‘zi yetarli emas, u ma’naviy kamolot va axloqiy poklik bilan mustahkam bo‘lgandagina chinakam go‘zallik sifatida qabul qilinadi.

Asarda aks etgan obrazlar orqali botirlik, jasorat va kuch-qudrat ramzi sifatida tasvirlangan qahramonlarning jismoniy husni va ichki fazilatlari o‘zaro uyg‘unligi yoritiladi. Jumladan, bahodir va sheryurak insonlar yuksak axloqiy qadriyatlarga ega bo‘lishi lozimligi uqtiriladi. Ularga xos bo‘lgan ochiq yuzlilik, salobat, xushbichimlik, jismoniy sog‘lomlik, dovyuraklik, jasorat va shijoat kabi fazilatlar yuksak baholanadi. Shu bilan birga, insonning tashqi qiyofasi uning ichki dunyosini aks ettiruvchi bir omil sifatida talqin qilinadi. Agar inson botinan yuksak fazilatlarga ega bo‘lsa, u tashqi qiyofasida ham o‘z ifodasini topadi. Shu bois asarda go‘zallik faqat tashqi chiroy bilan emas, balki insonning axloqiy barkamolligi bilan ham o‘lchanishi ta’kidlanadi. [1.61-b.]

Shuningdek, go‘zallik ideali sifatida alpzo‘r, salobatli va jasur insonlarning siymolari orqali jismoniy qudrat va ruhiy kuchning birlashuvi tasvirlanadi. Bunday qahramonlar nafaqat tashqi chiroy, balki ichki dunyosining go‘zalligi, donishmandlik va oliyjanoblighi bilan ham ajralib turishi lozimligi ta’kidlanadi. Shu jihatdan “Qutadg‘u Bilig” asarida go‘zallik tushunchasi keng qamrovli va murakkab ma’noga ega bo‘lib, unda tashqi va ichki go‘zallikning bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ekani namoyon bo‘ladi.

Muhokama (Discussion)

“Qutadg‘u Bilig” asaridagi go‘zallik tushunchasi islom falsafasi va Sharq tasavvufiy estetikasi bilan bog‘liq jihatlari mavjud. Yuqorida aytib o‘tilganidek, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u Bilig” asarida go‘zallik tushunchasi faqat tashqi go‘zallik bilan cheklanmay, balki insonning axloqiy va ma’naviy kamoloti bilan uzviy bog‘liq holda tushuntiriladi. Ushbu yondashuv islom falsafasi va Sharq tasavvufiy estetikasi tamoyillariga mos keladi. Birinchidan, islom falsafasida go‘zallik Allohning jamol (go‘zal) sifatleri bilan bog‘lanadi. Hadisda aytilganidek: “Albatta, Alloh go‘zal va go‘zallikni sevadi.” Bu nuqtayi nazardan qaraganda, go‘zallik mutlaq va ilohiy tushuncha bo‘lib, inson go‘zallikka intilish orqali ma’naviy kamolot sari yo‘l oladi. Yusuf Xos Hojib asarida go‘zallik adolat, bilim, donishmandlik va axloqiy yuksaklik kabi fazilatlar bilan bog‘lanadi. Ya’ni, chinakam go‘zallik insonning ezgulik va kamolotga intilishi bilan o‘lchanadi. Ikkinchidan, tasavvufda go‘zallik zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) go‘zallik sifatida talqin etiladi. Tasavvuf ta’limoticha, zohiriy go‘zallik bu jismoniy va

tashqi chiroydir, botiniy go'zallik qalbning pokligi, odob va axloqiy mukammallikdir.[4.21]

Jaloliddin Rumi fikricha, haqiqiy go'zallik insonning Allohga yaqinligi va axloqiy fazilatlarida namoyon bo'ladi. Yusuf Xos Hojib ham inson go'zalligini faqat tashqi husn bilan cheklamay, balki komillikka intilish va axloqiy poklik bilan bog'laydi. "Qutadg'u Bilig" asaridagi go'zallik tushunchasi tasavvufiy qarashlar bilan uyg'un bo'lib, u adolat, bilim hamda ma'naviy va jismoniy poklik mezonlari asosida asoslanadi.

Masalan, Forobiy va Ibn Sino falsafasida bilim insonni yuksaklikka olib chiqadigan go'zallik sifatida talqin etiladi. Xuddi shu kabi, Yusuf Xos Hojib ham bilimli va donishmand insonlarni haqiqiy go'zal deb ta'riflaydi. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra, inson qalban pok bo'lsa, haqiqatni anglab, go'zallikka erishadi.[5.280-b.] "Qutadg'u Bilig" asarida esa axloqiy go'zallik oliy qadriyat sifatida ta'kidlanib, insonning pok bo'lishi uning ma'naviy yuksalishida muhim omil sifatida ko'rsatiladi.

"Saodatga eltuvchi bilim" asari faqat tarixiy-badiiy yodgorlik emas, balki bugungi kunda ham yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi manba hisoblanadi. Asarda ilgari surilgan axloqiy, ma'naviy va estetik qadriyatlar yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalashda dolzarbdir. Asarda odob, rostgo'ylik, adolat va halollik kabi insoniy go'zal fazilatlar ulug'lanadi. Yosh avlodni bu qadriyatlarga yo'naltirish ularning jamiyatda munosib o'rin egallashiga yordam beradi. Mutafakkir ilmni eng yuksak boylik deb biladi. U bilimli insonlar jamiyatni rivojlantirishini ta'kidlab, yoshlarga ilm-ma'rifatga intilishni targ'ib qiladi. Rahbarning, donishmandlarning va xalq xizmatidagi insonlarning fazilatlarini badiiy obrazlarda aks etgan. Bu jihatlar yoshlarni vatanparvar, mas'uliyatli va fidoyi bo'lishga undaydi. Hozirgi kunda jamiyatda axloqiy inqiroz, insonlararo munosabatlarning sovuqlashishi va madaniyatning qadrsizlanishi kabi muammolar kuzatilayotgan bir paytda mazkur asardagi go'zallik konsepsiyasidan foydalanib insoniy munosabatlarda ezgulik va odob-axloq tamoyillarini targ'ib qilib, bugungi yoshlarning axloqiy yo'nalishini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, "Qutadg'u Bilig" bugungi yosh avlodni komillik, ezgulik, bilimga intilish va axloqiy yetuklik ruhida tarbiyalash uchun bebaho manbadir.

Yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u Bilig" asarida go'zallik tushunchasining falsafiy va estetik talqini tahlili shuni ko'rsatmoqdiki, asarda go'zallik nafaqat tashqi go'zallik, balki axloqiy komillik va ma'naviy yetuklik bilan bog'liq holda talqin etiladi. Insonning haqiqiy go'zalligi uning fazilatlarini adolat, donishmandlik, kamtarlik, rostgo'ylik va ezgulik orqali namoyon bo'lishi ta'kidlanadi.

Sharq va G'arb falsafasi kontekstida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, Yusuf Xos Hojibning go'zallikka doir qarashlari Sharq falsafasi va tasavvufiy estetika bilan uyg'un bo'lib, go'zallik va axloqiy mukammallik o'zaro chambarchas bog'liq ekani asoslanadi. Xususan, Forobiy, Ibn Sino, Jaloliddin

Rumiy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning qarashlari bilan qiyosiy tahlil shuni tasdiqlaydi.

XULOSA

“Qutadg‘u Bilig” asarida ilgari surilgan go‘zallik tushunchasi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yosh avlod tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, axloqiy komillik, adolat, bilim va ezgulik kabi qadriyatlar hozirgi jamiyat uchun ham ahamiyatlidir. Shu bois, asar nafaqat tarixiy va adabiy yodgorlik, balki falsafiy-estetik va axloqiy tarbiya manbai sifatida ham o‘rganilishi lozim. Ushbu maqola go‘zallik tushunchasining tarixiy va falsafiy rivojlanishini chuqurroq anglashga, shuningdek, uning zamonaviy axloqiy-me‘yoriy muhitga ta‘sirini aniqlashga hissa qo‘shadi. Kelgusida bu mavzuni yanada kengroq tadqiq etish uchun Sharq va G‘arb falsafasidagi go‘zallik tushunchalarining zamonaviy tahlili hamda tasavvufiy estetikaga oid chuqur o‘rganishlar olib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. (“Saodatga eltuvchi bilim”) / (Hozirgi o‘zbek tilida bayon qiluvchi va so‘zboshi muallifi B.To‘xliyev). – Toshkent.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 200 b.
2. Tursunkulova, Sh. T. (2022). Alisher Navoi on human beauty. ISJ Theoretical & Applied Science, 08 (112), 318-322.
3. Махмудова, Г.Т. (2016). ЭВОЛЮЦИЯ ЭСТЕТИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ ВОСТОКА. *Современные научные исследования: актуальные теории и концепции* (pp.171-172).
4. Tursunkulova Sh.T. Tasavvuf ilmida inson go‘zalligi paradigmasi. Monografiya. – Samarqand: SamDCHTI, 2023. – 135 b.
5. Комил инсон ҳақида тўрт рисола. Форс-тожик тилидан Н.Комилов таржимаси. – Toshkent.: Ma‘naviyat, 1997. – 280 б.

TURKIY XALQLARNING DASTLABKI QARASHLARI VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. TURK VA TURONIYLARNING KELIB CHIQIQSHLARI HAQIDA DASTLABKI MANBALARNING GUVOHLIGI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.15721346>

Muhammadjon Qodirov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Sharq falsafasi va germeneytika” kafedrasining professori,
falsafa fanlari nomzodi, professor

Dehxudoning mashhur “Lug‘atnomaye Dehxudo” ensiklopediyasida keltirilishicha “Tur” so‘zi “Turon viloyati” ma‘nosini ham bildiradi. Bunday ma‘no “Burhon”, “Farhange Jahongiriy”, “Rashidiy”, “G‘iyosul lug‘at”, “Anjimane oro” va “Onandiroj” doiratul maoriflarida ham qayd etiladi. Viloyate Turon zamin mamlakat nomi sifatida takidlanib “Nozimul atbo” doiratul maorifida aytiladiki ... bu viloyatni Faridun Turga berganligi uchun uning nomi “Turon” deb atala boshlandi va Turon Turkistondan boshqa bo‘lib, juda qadim zamonlardan beri ushbu viloyatni forsiylar Dahiston va Eronshahr deb atashar edi. Turga berilganligi sababli uni Turon deb deb atay boshladilar, yani Turning mulki. Turon janub tomondan Taxoriston va Chatrol tog‘i va shimol tomondan Xorazm shaharlari, Qipchoq dashti va janubiy g‘arbiy tomondan juffon daryosi (Kasbiy dengizi), Xuroson va Sharq tomondan Turkiston yerlari va Mo‘g‘uliston bilan o‘ralgan edi. Arablar bu viloyatlarni fatx etgandan keyin u Mavorounnahr deb atala boshlandi. Bu joy to‘rtinchi va beshinchi iqlimda bo‘lib, uning tog‘lari biyobonlaridan ko‘pdir Uzbek, tarokama va afg‘on qavmlari unda yashaydi “Anjimone oro”, “Onandiroj” doiratul maoriflari keltirilishicha:

Zi shahri be dod omad satim dur.

Zi Eron az on suti, zi onsuni Tur.

Unga shahrni berdi, sitam uzoqlashdi.

Erondan u tomonga, Turdan bu tomonga,

“Firdavsiy, Anjumane oro” dan,

Miyonro bebandad be kin pedar

Kunad keshvar Tur ziru zabor.

Firdavsiy

(Urtani yopishar ota ginasidan.
Tur mamlakatini ziru zabor qilib).³⁴¹

Avesto kitobida taqvodor ikki xonadonning nomi ture (Giyga) sifatida zikr qilinadi (Farvardin yashit 113 va 123 bandlar). Avestoda Faridun (Thraetona) sifatida keltiriladi va obtin (Tours) o'z mamalakatini uch o'g'li o'rtasida taqsimlab. Seral(Salim), Tur va Irojga o'z ulishini beradi. Bu uch o'g'ilning har biri o'z ulishlariga tushgan mamlakatlarga o'z nomlarini beradilar: Sarmon, Turon, Eron.

(“Burxon doiratul maorifi xoshiyasiga yozgan Doktor Muhammad Mo‘min)
Uni Tur ataymiz jasoratli sher
Uni kata fildan tushurib bo‘lmas.

Firdavsiy

Hech narsa yashirmay, tashqari olib chiqdi o'rtadan
Jahonda yaratilishlarni uch qismga bo'ldi:
Birinchi bo'lib Salimga yuzlandi
Barcha Rum va Sharqni unga bag'ishladi.
Keyin Turga berdi Turon zaminini
Va uni qildi turklar va Xitoy solori (boshlig'i)
Keyin navbat Irojga yetganda
Uni Eron otasi qilib sayladi.

Firdavsiy³⁴²

Turonliylar deb barcha O'rol-Oltoidan Markaziy Osiyoga kelib, Eron shimolida yashovchi qavmlar, xunlar, majorlar, turklar, va turon zaminida yashovchi barcha xalqlarni aytish mumkin.

Marxum Malekush-Shuaro Bahor o'zining Sabukshunosiy kitobida (stilistika) quyidagilarni yozgan edi “ Bazilari turoniylar, yani Tur farzandlari bo'lib, u esa o'z navbatida Faridunning o'g'li bo'lib ularning yashashi makonlari “Xudoyunnoma va Shahnoma” da aytilgandek Eronning sharqi va mavarounnaxr orlari bo'lib o'sha yerlarda istiqomat qilar edilar. Ilmiy tadqiqot manbalariga muvofiq bo'lar shunday toifadagi kishilar edilarki, kelib chiqish tarixiyatidan oriylar naslidan bo'lib, til va urf-odatlar bo'yicha eroniylardan edilar. Tanxo diniy va ijtimoiy tarbiya jihatidan g'arbiy shimoliy va janubiy eroniylardan farq qilar edilar. Ularning diniy etiqodlari ko'pincha oftoblar, o'simlik va butparastlik

³⁴¹ Ali Akbar Dehxudo. Lug'atnomaye Dehxudo. Seril soni 148. Texron. Texron universiteti bosmaxonasi. 1968 y. 1101 - bet.

³⁴² O'sha joyda. 1102-bet.

unsurlaridan bazilarni shamaniy yani butparaslikning bo'limidan iborat edi. Buddaviylikdan ham bazi jihatlarni olgan edilar. Ularning mashg'uloti va chorvachilik sahrolarni kezish bo'lib o'tloqlarni qo'lga kiritish uchun mamlakatlar bilan urushlar olib borar edilar. Bu xalqlar qadim zamonlardan beri sharqiy Turkistonda sariq iqlim qavmlar bilan qo'shnichilik qilar va ular bilan urushlar olib borar edilar. Saoniylar davrida, ayniqda Anushurivon hukumdorligi zamonida bu toifadagi xalqlar Oxshoylik turklar bilan yanada aralashdilar Movarounnaxr xalqalari to Tebbit hududlarigacha xamma vaqt Eltoylilar va Mug'ilistonda yashovchi toifalar bilan qarama-qarshilikda edilar, ba'zida eronlilar va bani Amoma qavmlari bilan jang olib bolar edilar. Shunday qonli janglar bo'lar ediki ular uzoq davom etib, ushbu janglar o'z nomi bilan bir-biridan ajralib turar edi. Jumladan, Salim, Tur, va Iraj janglar Afrosiyob va Kayxisrav urushlari, Arjosp va Geshtosp urushlari... Sosoniylar ham oq xunlar va Xebtollar bilan urush olib borganlar... “ (Sabuqshunosiga ilova 2-jild 244-bet. Mazdayasno, Qadimgi Eron tarixiga murojat qilinsin 1-jild 218-bet; Qadimgi Eron madaniyati 238,241,451, 402-betlar. Rudakiyning hayot yo'li va she'rlari 3- jild 272-bet.

Turk nomi badaviy qavm sifatifa birinchi martda milodiy VI asrda tilga olinadi. Negaki, shu asrda turklar o'zlarining kuchli davlatlarining Xitoy shimolidagi Mo'g'iliston xududlaridan to Asud dengizigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga oluvchi kata sarzaminda ta'sis etdilar. Mazkur davlatning muassasasini xitoyliklar “ Tumen” (tu-men) deb ataydilar. Turkiy yozuvlarda “ Bitmen” u 552-yilda vafot etdi. Uning ukasi “Istamu” (Taburiy asarining 1-chi jildi va 895va 896 : Sanju xoqon) g'arb tomondagi ko'p joylarni bosib oldilar va 576 yilgacha yashadi. Bu ikki aka uka boshidan boshlab mustaqil, ravishda davlatni boshqardilar. Xitoyliklar bu davlatlarni shimol va mashriqdagi imperiyalar deb atadilar. 581-yilda Xitoyning “Sui” sulolasi tasiri ostida bu ikki imperiya bir-birlaridan ajralishdilar va keyinchalik Xitoyning “Tang” sulolasi tasarrufiga o'tdilar (618-907) yillar 682-yillarda shimoliy turklar o'z mustaqilliklarni qo'lga kiritdilar. Ushbu qadimgi turklarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari va ularning axloqlari haqida juda ko'p baxslar yuritildi, yani ko'proq ma'lumot olish uchun. Islom doirasida maorifiga murojat qilish maqsadga muvofiq. Turk sharq she'riyatida keng qollaniladigan mashxurlikka turklarning jangovorligi va turk qizlarining go'zaligi tufayli edi. Masalan Firdavsiy shunday yozadi:

Kasiro az turkon naboshad hirad
Kz andishaye xish romash buvod

(Agar turklarda aql bo'lmasa ,
Bunday fikirdan o'zini ovutadi).

Bexandid u ongah be afsus go'ft,
Ki turkon az uron nayoftant juft.

(O'shanda u kuldi-yu, afsus bilan dedi:
Turklar Erondan o'z juftlarini topolmadilar)

Firdavsiy

K Turkon bedidant pur chexrand
Be jang andarun pok be bahra and

(Turklar ko'rdilarki go'zallar ko'pu mo'l
Ichdan jang qilishdan poklanib be bahra qoldilar)

Firdavsiy

Rasm turkon ast xo'n xo'rdan zi ro'yi do'sti
Xunman u xurd nadid az do'sti dar ro'yi man

(Turklar rasmda bor do'st tufayli qon ichish
Mening qonimni ichdi-ki, yuzimdan do'stlikni ko'rmadi)

Xoqoniy

On kistki andar raftonash sabr az dil mo miburd
Turk az Xuroson omada ast az pors payg'ami burd

(U Kimnidirki o'z ketishi bilan dilimizdan sabrni oldi,
Turk Xurosondan keldiyu, Porsdan habar keltirdi.)

Sa'diy

Turk man bar dil man qamravo gashtu ravo ast
Az xame turkon chun turk man imzud kafo ast
(Faruxiy.Devon 21-bet)

(Mening dilimga men izlagan turk o'rnashdi.
Barcha turklardan ko'ra, dilimdagi tur bugun qayerda)

Gar chun tu be Turkiston ey turk nigori ast
haruz be Turkiston endi va bexori ast

(Agar endi Turkiston tomon qarasang ey turk
Turkistonda har kun bayramu bahordir)

Faruxi

Ey Turkman imruz nangun bokujon
to kas befristam u bexavonim beoyi

(Ey Turkman bugun qayerda ekanligimni aytma,
Negaki kishi yuborish.seni chaqiram menga kelasan

Manuchehriy

Turkiy so‘zlarda kinoyalar ham charx uradi yetti sayora kabi. Zuhul
(Saturin), Mushtariy (Yupiter), Mirix (Mars), Oftob (Quyosh), Zuxra (Venera),
Atorud (Merkuriy) va Oy.

(Burxon, Onandrox)

Turk sulton shukuh-oftoy (Quyosh) manosidadir
(Nozimul Atba)

Turkiy Sheroziy Maxbub ma’nosida kelib, turki Xitoiy deb ham ataladi.
Za dast turk Xitoiy kasi jafo chandin Namikard ki man az dast turk Sheroziy
(Hech kim turki Xitoiy kabi og‘ir jafo bermada menga turki Sheroziyga
ohshab)

Sa’diy

Agar on turki Sheroziy bedast orad dili maro
bexol xinduyat baxsham Samarqandu Buhoro,

(Agar ko‘nglimni shod etsa, o‘shal Sheroz janoni
Qaro xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni)

Xofiz Sheroziy

Yusuf Xos Xojib XI asrning ko‘zga ko‘ringan shoiri va mutafakkiri edi. U
Bolasog‘un (hozirgi Qirg‘izistonning To‘qmoq) shahrida tug‘ilgan.

Yusuf Xos Xojib o‘zining birdan-bir dostoni bo‘lgan turkiy tilda yozilgan
“Qutadg‘u bilik” (“Baxtga eltuvchi bilim”) bilan mashhur bo‘lgan.

“Qutadg‘u bilik” axloqiy-nasihatimiz asar sifatida Sharq o‘rta asrining
dunyoviy adabiyotga mansub turk tilidagi eng yirik yodgorliklardan biri edi. Bu

asar arab tilida yozilgan Ibn al-Muqaffaning “Kitob al-adab al-kabir”, Ibn Qutaybaning “Ugon al-axbor”, Al-Johizning “Kitob at-taf” turidagi, shuningdek, “Qobusnoma” va shu xildagi Sharqda keng yoyilgan o’git-nasihat janriga mansub edi.

Ushbu kitob 1069 yilda yozilgan bo’lib, muallif uni Qashg’ar hukmdori Sulaymon Arslon Qoraxonga bag’ishlangan, shuning uchun ham xon unga Xos Hojib, ya’ni buyuk xonning maxsus maslahatchisi unvonini bergan.

“Qutadg’u bilik” ahloqqa oid qoidalar va hulq-atvor mezonlarining o’ziga xos qonuni edi.

Yusufning fikricha, hukmdor va uning tevarigidagi kishilar “davlat ilmi” qoidalarini binoan boshqarishga o’rganib olishlari xususida ana shu kitobdan barcha zarur bilimlarni topishlari zarur edi.

Asar mazmuni, tili va uslubidan kelib chiqib aytish mumkinki, Yusuf Xos Hojib arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, ilmiy, badiiy adabiyot bilan chuqur tanish bo’lgan. Bundan tashqari shoir qadim turk yozma adabiyoti, turk xalqlar og’zaki ijodini ham yaxshi bilgan, ular muhitida tarbiya olgan. Shoir turkiy elatlarning qadimiy qo’shnilari xitoy, hind, eroniy xalqlar madaniyatining turli tomonlari haqida mukammal ma’lumot egasi bo’lgan.

Garchand Yusuf obyektiv dunyo va undagi odamlar Xudo tomonidan yaratilgan, Xudoning nigohi hamma yerga yetib boradi, deb hisoblasa ham, har holda, mutafakkir insonning shundan keying qismatni uning haqiqiy hayotga bo’lgan munosabatni Xudo olamni yaratgan, ammo uning ishlariga bevosita aralashmaydi, degan nuqtai nazardan turib hal qiladi.³⁴³ Asarning umumiy hajmi – 5896 bayt.

Asosiy qism mazmuni va mundarijasiga ko’ra, “Qutadg’u bilik” dostonini mintaq adabiyotining birinchi bosqichida yaratilgan turkiy tildagi islom ma’naviyatining badiiy falsafiy, ijtimoiy-ahloqiy qomusi, deb ta’riflasak arziydi. Bunday ulkan yaxlit kitob Al-Buxoriyning “Jome as-sahih” idan keyin arab va fors tillarida ham yaratilmagan edi. VII-IX asrlarda Abdulhamid al-Kotib, Ibn al-Muqaffa (720-756), Adib Ahmad Yugnakiy, Johiz (775-869) kabi yirik adiblar tomonidan asos solingan adab ilmi, Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-ahloqiy falsafasi, “Shoxnoma” va turk xoqonlarining yodnomalari, mintaq xalqlarining boy ma’naviy o’tmish tarixini badiiy aks ettirsa, Yusuf Xos Hojib asari uning

³⁴³ Qarang: Yusuf Xos Xojib. Qutadg’u bilik. Toshkent “Fan”, 1972, 26 bet.

yangi davrdagi holatini badiiy tafakkur qonuniyatlari asosida mujassam etdi. Muallif o'z asarini "Shohnomayi turkiy", deb shuhrat topganini aytadi, bu qiyos shu ma'noda to'g'riki, o'tmishda mintaqa eroniy hukmdorlar - Sosoniylar hukmida bo'lgan bo'lsa, Yusuf davrida Sosoniylar mulki turkey hukmdorlar qo'lga o'tgan edi. Bolosog'undan Bag'dodgacha turkey sulolalar hukm surar edilar. Shu sababli endi sulolalar tarixi emas, davlatni boshqarish odobi muhim edi. Asarning yana boshqa shuhrat topgan nomlari "Adab ul-muluk" ("Hukmdorlar odobi") va "Oyin ul-mamlakat" ("Mamlakatni idora etish qoidolari") xuddi shu jihatni aks ettirar edi.

Doston mazmuni Yusuf Xos Hojib tasavvuridagi shunday bir badiiy olamni aks ettiradiki, uning asosiy qahramonlari 4 timsoldan tashkil topgan. Birinchisi, Adolat – u bosh hukmdor, uning nomi Kuntug'di, u quyoshdek barchaga barobar nur taratadi. Ikkinchisi, Davlat – turkiyda Qut, u bosh vazir, uning ismi Oytuldi. Qut yoki Davlat ichki mazmuniy tushuncha bo'lib, Boylik, Baraka, Omad, Baxt, Quadrat ma'nolarini o'zida jamlagan, hukmdorning tayanchi, uning boshiga quvvat, ko'ziga nur, mulkiga farovonlik baxt etuvchi bosh maslahatchi va nozir. Ammo Oytuldining umri foniy, Davlat, Baxt, Omad degan narsalar poydor emas, osmondagi oy singari goh to'lib ko'rinmay qolishi ham mumkin. Oytuldi asar davomida xastalanib vafot etadi. Ammo uning vorisi, o'g'li O'g'dulmish uning o'rinbosari, hukmdorning yaqin maslahatchisi bo'lib qoladi.

O'g'dulmish Aql va Bilim ramzi. Agar Boylik, Omad, Baxt o'tkinchi bo'lsa, kishi qo'lida doimiy turmasa, Aql va Bilim ularning o'rnini bosa oladi. Asli asarning bosh qahramoni O'g'dulmish, ya'ni Aql va Bilimdir. Shu sababli kitobning nomi ham "Qutadg'u bilig" (Baxtga eltuvchi bilim"). Baxt, qut-baraka, omad, quadrat manbai bo'lmish bilim bilan bog'liqdir. Asardagi to'rtinchi timsol – Qanoat. Agar insonda, jamiyatda qanoat bo'lmasa, uning barcha xosiyati bir pul, oqibati ayanchlidir. Qanoatning ismi O'zg'urmish bo'lib, u Oyto'ldining, ya'ni Baxt va Davlatning, O'g'dulmishning, ya'ni Aql va Bilimning qarindoshidir. Ammo Oyto'ldi qarindoshini eslamaydi. Baxt va Omad Qanoatni xavotirga

keltirmaydi. Hukmdorga (Elig) O'zg'urmish qarindoshi haqida O'g'dulmish eslatadi, ya'ni Adolat Aql yordamida Qanoatdan xabar topadi va uning suhbatini istaydi. Asar oxirida O'zg'urmish ham xastalanib vafot etadi. Kuntug'di va O'g'dulmish, ya'ni Adolat va uning bosh maslahatchisi Aql qoladilar.

Asar qahramonlari jonli shaxslar – Elig – Kuntug'di – adolatli, insofli hukmdor, Oytuldi –donishmand, tadbirli, tajribali alloma, murakkab kayfiyatdagi shaxs, yurt, jamiyatga foydasi tegishini o'ylab poytaxtga keladi va musofirparvar Ko'rsatish yordamida Eligning Xos Hojibi Ersig bilan tanishib, u tufayli Kuntug'di saroyiga kirib boradi. Elig bilan tanishadi. Elig va Oytuldi orasida ko'p suhbatlar bo'lib o'tadi. Ular bir-birlarining botiniy qiyofasi, fe'l-atvorini yaxshi o'rganib, asta-sekin umumiy til topishadi. O'zg'urmish bilan bo'lgan suhbatlar ta'sirida O'g'ulmishning ongi o'zgarib, rivojlanib boradi. U ma'lum vaqt O'zg'urmish ta'sirida tavba-tazarruga berilib, moddiy dunyo tashvishlaridan o'zini olib qochmoqchi bo'ladi, ammo O'zg'urmish va Kuntug'dilar yana uni bu niyatdan qaytaradilar, el-yurt tashvishi bilan yashashga undaydilar. Hojib Aql va Bilimni el-yurt, xalq farovonligi yo'lida xizmat ettirish eng asosiy burch, deb hisoblaydi. Aql avvalo Adolatga himoyachi va maslahatgo'y bo'lmog'i talab etiladi. O'zg'urmish shaxsi tarkidunyo etgan, zohidlik va taqvoniy yashash tarziga aylantirgan so'fiylarni eslatadi.

Yusuf Xos Hojib tasavvuf g'oyalari amaliyotidan chuqur xabardor ekanligini ushbu qahramoni tafsifida ayon etgan. Tasavvuf, taqvo, zohidlik va faqir uning nazariga avvalo Qanoatning timsoli, yorqin namoyondasidir. Qanoat oqibatni o'ylash bilan bo'ladi, u insonga ofiyat (ruhiy osoyishtalik, qoniqish) keltiradi. Adolat Kanoatsiz bo'lmaydi. Hukmdor so'fiyning, zohidning suhbatidan bahramand bo'lib turishi kerak. So'fiy hukmdorni qidirib kelmaydi, hukmdor uni o'zi qidirishi, suhbatiga intiq bo'lishi kerak. Kuntug'di, O'g'dulmishni O'zg'urmishga maktub bilan uch marta junatadi. Hojib fikricha, agar hukmdor e'tibor ko'rsatsa va mayl bildirsa, so'fiy ham suhbatdan bosh tortmasligi kerak. Albatta, zohid O'zg'urmish saroy ayoniga aylanmabdi, u ma'lum vaqt Elig bilan fikr almashib, yana o'z kulbasiga qaytib ketadi, hayot tarzini o'zgartirmaydi.

“Qutadg'u bilig” kitobi avom xalq uchun emas, birinchi navbatda, xaqon va beklar, ya'ni yurtning hukmdorlari uchun atab yozilgandir. Turkiy sulolalar butun islom mintaqasida hukmfarmo bo'lib kelayotgan bir paytda, ijtimoiy jihatdan “Shohnoma”dan ko'ra, “Qutadg'u bilig”, ya'ni “hukmdorlar adabnomasi” ko'proq zarur va bu kitob aynan turkiy tilda yozilmog'i kerak edi. Yusuf Xos Hojib ushbu ijtimoiy zaruriyatni vaqtida anglab yetdi; unga yuksak saviyada javob bera oldi.

O'sha davr ijtimoiy, axloqiy voqeligining juda ko'p, xilma-xil jihatlari asar mazmuniga singdirilgan. Ayniqsa, Kuntug'di va O'zg'urmish suhbatlariga bag'ishlangan 15-25-boblar, O'g'dulmish va O'zg'urmish suhbatiga oid 31-53-boblar davrning barcha ijtimoiy toifalari ahvol-ruhiyati, jamiyatdagi o'rni, fe'l-atvori haqida mufassal tasavvur beradi. Yusuf Xos Hojib jamiyatni tubdan o'zgartirishni emas, muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish, takomil baxt etishni maqsad qilib quyadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ali Akbar Dehxudo. Lug'atnomaye Dehxudo. Seril soni 148. Tehron. Tehron universiteti bosmaxonasi. 1968 y.
2. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilik. Toshkent "Fan", 1972,